


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF TIME IN THE ARABIC LANGUAGE (ON THE EXAMPLE OF THE TERMS ZAMAN (زمان), ZAMN (زمن), AND DAHR (دهر))****Jasur Nazirjonovich Temirov**

Senior Lecturer, Department of Middle Eastern Languages

Samarkand State Institute of Foreign Languages

temirovjasur1992@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر), category of time, temporal semantics in Arabic, verb tenses, nahw (Arabic grammar), concept of time in hadith texts, idāfa construction, morphological time, grammatical time.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article analyzes the linguistic and semantic characteristics of the concept of time in the Arabic language. In particular, the lexical and grammatical aspects of such terms as zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر), and waqt (وقت) are examined. Based on the views of classical Arabic lexicographers and scholars of nahw (Arabic grammar), the similarities and differences between these terms are analyzed. In addition, the usage of the concept of time in hadith texts is illustrated through examples, revealing its semantic and grammatical features. The study contributes to a deeper understanding of the category of time in Arabic linguistics within both linguistic and religious contexts.

ARAB TILIDA VAQT TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI (ZAMAN (زمان), ZAMN (زمن), DAHR (دهر) TERMINLARI MISOLIDA)**Jasur Nazirjonovich Temirov**

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yaqin sharq tillari kafedrasida katta-o'qituvchisi

temirovjasur1992@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر), vaqt kategoriyasi, arab tilida zamon semantikasi, fe'l zamonlari, nahv ilmi, hadis matnlarida vaqt tushunchasi, izofa

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilida vaqt tushunchasining lingvistik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر) va vaqt (وقت) kabi terminlarning lug'aviy hamda

konstruktsiyasi, morfologik vaqt, grammatik vaqt.

grammatik jihatlari yoritiladi. Qadimgi arab lugʻatshunoslari va nahv olimlarining qarashlari asosida ushbu atamalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, hadis matnlarida vaqt tushunchasining qoʻllanishi misollar orqali koʻrsatilib, uning semantik va grammatik imkoniyatlari ochib beriladi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ВРЕМЕНИ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРМИНОВ ZAMAN (زمان), ZAMN (زمن), DAHR (دهر))

Жасур Назиржонович Темиров

Старший преподаватель кафедры ближневосточных языков

Самаркандский государственный институт иностранных языков

temirovjasur1992@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر), категория времени, семантика времени в арабском языке, времена глагола, наху (арабская грамматика), понятие времени в хадисах, изафетная конструкция, морфологическое время, грамматическое время.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические и семантические особенности понятия времени в арабском языке. В частности, рассматриваются лексические и грамматические аспекты таких терминов, как zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر) и waqt (وقت). На основе взглядов средневековых арабских лексикографов и учёных-нахуистов проводится анализ сходств и различий между указанными понятиями. Кроме того, на примерах из хадисов демонстрируется употребление категории времени, раскрываются её семантические и грамматические возможности. Проведённое исследование способствует более глубокому пониманию категории времени в арабском языке в контексте лингвистических и религиозных источников.

Kirish. Islom dini Movarounnahr hududiga kirib kelishi bilan ushbu oʻlka islomiy taʼlimotlarning keng yoyilishi va shariat ilmlarining, xususan, Qurʼoni Karim ilmlari, hadis, fiqh, kalom hamda arab tili va unga oid fanlarning taraqqiy topgan asosiy markazlaridan biriga aylana boshladi. Bu zamindan yuzlab buyuk allomalar yetishib chiqib, oʻzlarining bebaho ilmiy-maʼnaviy meroslari orqali jahon ilm-fan va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshdilar. Imom Buxoriy, Imom Dorimiy, Imom Termiziy kabi mashhur muhaddislar barcha diniy fanlar, ayniqsa hadis ilmining yuksalishida muhim oʻrin egallaydi. Haqiqatdan ham, oʻrta asrlarda ilm-fan rivojiga muhaddislarning ilmiy merosi alohida eʼtiborga molik boʻlgan. Bugungi kunga kelib,

Movarounnahrda hadis ilmining shakllanishi va taraqqiyoti, shuningdek, bu zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy kabi ulug' muhaddislarning hayoti va ma'naviy merosini chuqur tadqiq qilish bo'yicha nafaqat O'zbekiston va Markaziy Osiyoda, balki butun musulmon dunyosida keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilida vaqt tushunchasini o'rganishda qadimgi va zamonaviy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Ibn Foris ("Maqoyis al-lug'a"), Ibn Durayd ("al-Jumhara"), Ibn Manzur ("Lison al-'Arab") asarlarida zaman (زمان) va zamn (زمن) tushunchalari asosan sinonim sifatida izohlanib, vaqtning davomiyligini anglatishi ta'kidlangan. Xalil ibn Ahmad va Abu Hilol al-Askariy qarashlarida esa zaman, vaqt (وقت), dahr (دهر), mudda (مدة) o'rtasidagi semantik farqlar yoritilgan. Nahv olimlari vaqtni fe'ning sodir bo'lishi bilan bog'lab, arab tilida zamon shakllari (ماضي، مضارع، امر) tizimini ishlab chiqqanlar. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, Dr. Tamam Hassan tomonidan zamn lingvistik, zaman esa fizik-falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Hadis manbalarida esa vaqt tushunchasining turli grammatik va semantik qo'llanishlari namoyon bo'ladi. Tadqiqot tavsifiy, qiyosiy va semantik-komponentli metodlar asosida amalga oshirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari arab tilida vaqt tushunchasi murakkab lingvistik va falsafiy kategoriya sifatida shakllanganini ko'rsatdi. "Zaman" (زمان) va "zamn" (زمن) atamaları qadimgi olimlar tomonidan ko'pincha sinonim sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, ayrim manbalarda ular o'rtasida semantik farqlar mavjudligi aniqlangan. Nahv olimlari vaqtni fe'ning sodir bo'lishi bilan bog'lab, arab tilida zamon shakllari tizimini (ماضي، مضارع، امر) ishlab chiqqanlar. Zamonaviy tadqiqotlarda esa zamn lingvistik, zaman esa fizik-falsafiy kategoriya sifatida ajratiladi. Hadis matnlari tahlili vaqt terminlarining turli grammatik va semantik vazifalarda qo'llanishini ko'rsatdi. Shuningdek, vaqtga oid boshqa atamalar o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ularning har biri alohida ma'no doirasiga ega ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, arab tilida vaqt tushunchasi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: lug'aviy, grammatik va falsafiy vaqt.

Arab tilida vaqt (الزمن) so'zi fe'l zamoni bilan bog'liq bo'lib, bir nechta ma'nolarni anglatadi. Aslida, arab lug'atlari ushbu tushunchani batafsil sharhlagan hamda fe'l zamoni haqida so'z yuritilar ekan, zaman (الزمان) so'ziga ham alohida e'tibor qaratgan. Chunki bu ikki atama o'rtasida yaqin bog'liqlik va aniq sinonimlik mavjudligi ta'kidlanadi.

Agar (زمن) "z-m-n" ildizining asl lug'aviy manbasini aniq belgilamoqchi bo'lsak, Ibn Foris (vaf. 395 hijriy) tomonidan yozilgan "مقاييس اللغة" Maqoyis al-lug'a" lug'ati bu borada muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ibn Foris o'z asarida shunday deydi: "zharflaridan iborat ildiz yagona ma'noga ega bo'lib, u vaqtning ma'lum bir qismini anglatadi. Shundan "zaman زمان" so'zi kelib chiqqan bo'lib, u hozirgi paytni bildiradi — u kam bo'lsin, ko'p bo'lsin. Zaman va zamin

(zamn) deyiladi, uning ko'plik shakllari esa *أزمان* (azmān) va *أزمنة* (azmina) dir." (Ibn Faris, 1399, p.137).

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Ibn Faris zaman va zamn tushunchalarini bir-biridan farqlamagan, balki zaman so'zini ham uch harfli *زمن* zamn fe'lidan kelib chiqqan deb hisoblagan.

Shuningdek, ko'plab tilshunolar "zaman *زمان*" va "zamn *زمن*" atamaları o'rtasida farq qilmaganlar. Bu qarashni nahv olimlari va usulchilar ham davom ettirib, har ikkala so'zni vaqtning oz yoki ko'p miqdorini ifodalashda bir xil ma'noda qo'llaganlar. Bu borada Xalil ibn Ahmad shunday deydi:

"أزمن Zamn zamanning bir qismi hisoblanadi. "أن الزمن من الزمان، وأزمن الشيء: طال عليه الزمان" Azmana ash-shay" iborasi esa ma'lum bir hodisa yoki narsaga nisbatan vaqtning uzoq davom etganini bildiradi." (Al-Farahidi, 1414, p. 175).

Xalil ibn Ahmadning ushbu fikridan ham *زمن* so'zi muayyan vaqt bo'lagini anglatishi ayon bo'ladi. Biroq u ham *زمان* va *زمن* o'rtasidagi aniq farqni ko'rsatib bermaydi.

Ibn Durayd (vaf. 321 hijriy) esa "al-Jumhara" asarida shunday deydi: "أزمان ma'lum tushunchadir, uning ko'plik shakllari *أزمنة* va *أزمن* dir. "أزمنة الشيء" Azmana ash-shay" — ya'ni, narsaga vaqt o'tib ketdi, u esa "muzmin" bo'ladi. *ومن* esa *زمان* ma'nosidadir." (Ibn Durayd, 1345, p.19)

Bu fikrlardan ham ko'rinadiki, qadimgi arab tilshunolari nazarida *زمن* va *زمان* tushunchalari asosan bir xil ma'noda qo'llanilgan.

Yuqoridagi fikrlarga yaqin qarashni Ibn Manzur (vaf. 711 hijriy) ham o'zining "لسان العرب" *Lisān al-'Arab* asarida keltiradi. Unga ko'ra, zamn va zaman so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, vaqtning oz yoki ko'p miqdorini, muayyan davrni, muddatning cho'zilganligini hamda ma'lum joyda qolib turishni anglatadi. (Ibn Manzur, 1990, p. 199).

Ibn Manzurning ushbu mulohazalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, u zamn va zaman atamalarini bir xil semantik mazmunga ega deb hisoblaydi va ular o'rtasida farq qo'ymaydi.

Biroq, agar qadimgi olimlarning lug'aviy farqlarga bag'ishlangan asarlariga murojaat qilinsa, ayrim manbalarda *زمن* zamn va *زمان* zaman o'rtasida farq keltirilganini ko'rish mumkin. Ularning fikricha, *زمن* zamn — aniq chegaralanmagan vaqt oralig'ini bildirs *زمان* zaman — tunlar va kunlarning ketma-ket o'tishini anglatadi. Ayrim qarashlarga ko'ra, *زمن* qisqa muddatni, *زمان* esa uzoq davom etuvchi vaqtni ifodalaydi.

Shuningdek, nozik farqlardan biri sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, *زمان* umumiy, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan vaqtni anglatadi, *زمن* esa shaxsga qarab turlicha idrok etiladigan vaqtni bildiradi. Yana bir qarashga ko'ra, *زمن* harakatsiz (statik) narsalarning davomiyligini ifodalasa, *زمان* harakatdagi (dinamik) hodisalarning davomiyligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilida “زمن” fe’li bir nechta ma’nolarni ifodalaydi. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- vaqtni anglatadi, u oz bo’lsin yoki ko’p bo’lsin;
- ayrim hollarda muddatning cho’zilishi (kechikish) ma’nosini bildiradi;
- shuningdek, bu fe’l til qo’llanishida insonni harakatdan to’xtatib, uni maqsadiga yetishdan to’suvchi holatni ham ifodalashi mumkin.

Mazkur ma’nolar orasida, bizning maqolamiz uchun eng yaqin va muhim bo’lgani — vaqtni, u qisqa yoki uzoq bo’lishidan qat’i nazar, ifodalovchi ma’no hisoblanadi. Bunda esa zamn va zaman o’rtasidagi farqlash yuqorida bayon etilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Agar lug’atshunoslar زمن tushunchasiga uning moddiy asoslari va etimologik kelib chiqishi nuqtayi nazaridan yondashgan bo’lsalar, nahv olimlari bu masalaga mutlaqo boshqacha qaraganlar. Ular زمنni hodisaning sodir bo’lish vaqti sifatida baholab, uni o’tmish, hozirgi–kelasi zamon va buyruq turlariga ajratganlar. Keyinchalik ushbu zamoniy ma’nolarni morfologik tizim sifatida shakllantirib, fe’l shakllariga kontekst doirasida tatbiq etganlar. Shu bois o’tgan zamon shakli “ماضي” deb nomlangan bo’lsa-da, u kontekstga ko’ra kelasi zamon ma’nosini ham anglatishi mumkin; hozirgi zamon shakli hozir sodir bo’layotgan ish-harakatni bildiradi; buyruq shakli esa ko’tarinkilik, yo’naltirish va mavqe balandligini ifodalovchi ma’nolarni o’zida mujassam etadi. Bunday buyruq, odatda, buyruq beruvchi shaxsning mavqei yuqori bo’lib, murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan ustunlikni bildiradi.

Bu o’rinda muhim bir masalaga e’tibor qaratish lozim, ya’ni vaqt kategoriyasining semit tillarida va boshqa tillardagi o’rni masalasi. Aslida, semit tillari zamon ifodasi jihatidan qadimgi tuzilmasida hind-yevropa tillariga juda o’xshashdir. Chunonchi, umumiy semit tilida fe’l zamonlarining turli ko’rinishlarini aniq farqlab beruvchi maxsus vositalar mavjud bo’lmagan. Biroq shu bilan birga, bu tillarda fe’l bilan ega o’rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun nihoyatda boy va rang-barang vositalar majmuasi mavjudligi e’tiborni tortadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, nahv olimlari nazarida vaqt tushunchasi fe’lning sodir bo’lish vaqti, uning shakli va ko’rinishi bilan chambarchas bog’liqdir. Bu esa lug’atshunoslar tomonidan berilgan vaqt ma’nolari va uning turli qo’llanilishlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Shubhasiz, so’z va ma’nolarga doimiy ravishda o’zgarishlar kiradi, xususan, arab tili boy va boyitilgan til bo’lganligi sababli. Shu nuqtai nazardan, so’nggi davr olimlari zamn va zaman o’rtasida aniq farq qo’yanlar. Ularning fikricha, zamn — lingvistik ifoda bo’lib, zaman esa falsafiy o’lchovdir. Ya’ni, ular bir-birining sinonimi emas, chunki zaman hodisaga bevosita bog’liq emas va fe’l shakllarida hodisa ma’nosini bildiruvchi semantik yuklamaga ega emas. Misol

tariqasida bunday soʻzlar keltiriladi: kecha (أمس), bugun (اليوم), ertaga (غداً), oʻtgan kun (البارح), tong (الضحى), erta tong (الصباح), kechqurun (المساء).

Ushbu yoʻnalishni qoʻllab-quvvatlagan olimlardan biri Dr. Tamam Hassan, u quyidagicha taʼkidlaydi: " زمان – bu vaqt miqdorining matematik oʻlchovi boʻlib, u belgilangan birliklarda – soniya, daqiqa, soat, kechasi, kunduz – oʻlchanadi. U feʼl shakllarining kontekstdagi maʼnosini aniqlashga kirmaydi va grammatik vaqt kabi hodisaga bogʻliq emas. Vaziyat (زمان الطرف) esa ikki hodisaning bir-biriga bogʻlanish vaqtini bildiradi, yagona hodisani emas. Shu nuqtai nazardan, زمان hodisaning vaqtiga oid semantik maʼnoni ifodalash vositasi sifatida qaraladi."

Shunday qilib, soʻnggi davr olimlari nazarida زمان va زمن tushunchalari funktsional jihatdan ajratiladi: biri lingvistik hodisani (زمن), ikkinchisi esa falsafiy va oʻlchoviy kategoriya sifatida (زمان) talqin qilinadi.

Dr. Tamam Hassan fikriga nazar soladigan boʻlsak, u “ زمان zaman” atamasini faqat fizikaviy vaqt bilan cheklaydi. Yaʼni, u kun, soat kabi oʻlchov birligidagi vaqt miqdori yoki boshqa tomondan, quyoshning falakdagi harakati miqdori sifatida tushuntiriladi. Bu miqdor yil, oy, kun kabi boʻlinmalarga ajratilishi mumkin. Lugʻaviy maʼnoda esa “ زمان zaman” atamasi ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, zaman uch turga boʻlinadi: morfologik vaqt, grammatik vaqt va leksik vaqt — va aynan shu soha tadqiqot mavzusini tashkil etadi.

Shundan kelib chiqadiki, zaman vaqtning miqdori va hajmini bildiradi: kun, soat, daqiqa kabi birliklar shu tushuncha doirasiga kiradi. Bu esa زمان zaman tushunchasidan farq qiladi, chunki زمان zaman feʼlning sodir boʻlish vaqtini anglatadi va u morfologik, grammatik yoki leksik jihatdan ifodalanishi mumkin.

Bizningcha, Dr. Hassan tomonidan keltirilgan bu taqsimot yetarli asosli boʻlib, zamonaviy maʼlumotlar bilan mos keladi va terminologik tushunchalarni aniqroq belgilashda foydali boʻladi. Shuningdek, Dr. Hassan oʻzining “Al-Usul” asarida taʼkidlaydi: زمان zamanning tasnifi, xususan, nahv qoidalari umuman olganda muhim bir bosqichdan oʻtgan, bu bosqichni biz “abstraksiya bosqichi” deb atashimiz mumkin. Nahv ilmining ilk paytlarida, uning rivojlanishi va keng qoidalar belgilanishidan oldin, olimlar feʼl shakllari va ularning maʼnolarini umumlashtirganlar. Shubhasiz, bu jarayon grammatik qoidalarga ham taʼsir qilgan, va ehtimol, vaqt tushunchasi va uning turlari shu yoʻnalishda shakllangan qoidalardan biri boʻlgan. Koʻrinib turibdiki, lugʻatshunoslar arab tilida “ زمان zaman” va “ زمان zaman” atamalari oʻrtasida aniq farq qilmagan. Shu bois ular زمان zaman va uning sinonimlarini batafsil tushuntirishga katta eʼtibor qaratganlar. Masalan: dehr (دهر), mudda (مدة), vaqt (وقت), davr (فترة), asr/epoxa (حقبة), aylanish (حول) va boshqalar. Zaman va vaqt (vaqt) oʻrtasidagi farqga kelsak, Abu Hilal al-Askariy shunday deydi: "Zaman va vaqt oʻrtasidagi farq shundaki, zaman – turlicha va ketma-ket keluvchi va kelmaydigan vaqtlar, vaqt esa yagona va u falak harakatining bir harakati bilan oʻlchanadi. Vaqt, zaman kabi, tananing bir

qismida harakat qilayotgandek o'tadi. Shuningdek, zaman qisqa yoki uzun deyish mumkin, lekin vaqtga nisbatan "qisqa vaqt" deyish mumkin emas." Demak, Abu Hilal al-Askariy fikricha, زمن zamn vaqt tushunchasidan kengroq va umumiyroqdir.

Shu nuqtai nazardan, Ibn Manzur (vaf. 711 hijriy) “داهر” va “زمان zaman” o'rtasidagi farqni aniqlaydi. U shunday deydi: Shumerga ko'ra, dahr va zaman bir xil, lekin Abu al-Haytham fikricha Shumer xato qilgan; chunki zaman issiq yoki sovuq davr, meva davri kabi cheklangan muddatni bildiradi, dahr esa uzluksiz davom etuvchi vaqtni anglatadi. Shuningdek, zaman ikki oydan olti oygacha davom etuvchi davrni bildirishi mumkin, dahr esa tugamaydigan davomiyligni bildiradi. Shu bilan Ibn Manzur zamanni ma'lum voqeaga bog'langan muddat, dahrni esa umumiy va cheklanmagan vaqt deb ajratadi.

Zamn bilan bog'liq boshqa atamalar:

دهر Dahr – turlicha yoki ketma-ket keluvchi vaqtlarning yig'indisi;

زمان Zaman – vaqtlarning ma'lum bir to'plami.

مدة (mudda) va زمان zaman o'rtasidagi farq: Mudda va zaman ikkalasi ham vaqt yig'indisi uchun ishlatiladi, lekin eng qisqa mudda ham eng qisqa zamanidan uzunroq bo'ladi. Aslida mudda so'zi “uzunlik” ma'nosidan kelib chiqqan va uzunlikni bildiradi. Shu bois “Alloh umringni cho'zsin (مد الله في عمرك)” deyish mumkin, lekin ikki vaqt yoki ikki jism birlashtirilsa, u “mudda” deb aytilmaydi.

Huqba, zaman va barha o'rtasidagi farq:

Huqba (حقبه) – yil uchun ishlatiladi, lekin yilning o'zi oylarning yig'indisi ekanligi sababli, (حقبه) huqba boshqa ma'noni bildiradi: u ishlar va voqealar sodir bo'ladigan davrni bildiradi.

Barha (برهة) – dahrning bir qismi, ya'ni “dahrning bir bo'lagi” ma'nosida ishlatiladi. Ba'zi olimlarga ko'ra, bu so'z forscha kelib chiqqan va arablashtirilgan.

Agar biz yuqoridagi tushunchaga yaqin bo'lgan “vaqt” (الوقت) terminiga murojaat qiladigan bo'lsak, Ibn Sidah uni quyidagicha ta'riflagan:

“Vaqt – bu ma'lum bir dahr miqdori bo'lib, asosan o'tmish zamonda ishlatiladi, lekin kelajakda ham qo'llanilishi mumkin. Sibavayh esa vaqt so'zini joylashish bilan bog'liq holda ishlatgan, ya'ni vaqtni zamon bilan aloqadorligini ko'rsatgan, chunki u o'lchov birligidir.

Zaman زمان va zamn زمن so'zlariga qaytsak, zaman atamasi qadimgi nahv olimlari muloqotida keng qo'llangan, xususan fe'l va vaziyat (zarf) tuzilishini tahlil qilishda. Masalan, fe'l ma'nosi hodisa va vaqtning bog'lanishi sifatida ifodalanadi. Ba'zi olimlar esa unga zaman ma'lum bir yakuniy natijaga erishadigan vaqt deb qo'shimcha ma'no berishgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa “زمان zaman” atamasi ko'proq زمان zaman o'rniga ishlatiladi. Buning sababi shundaki, olimlar uni mustaqil grammatik mavzu sifatida ko'rib chiqqanlar, ilgari esa u faqat morfologiya va nahv bo'limlarida yuzaga kelgan edi. Bu yondashuv quyidagi bo'lim

sarlavhalarida yaqqol ko‘rinadi: “Zamn va yo‘nalish”, “Vaqt tushunchasi”, “Arab tilida vaqt”, “Fe‘l va uning zamoni hamda tuzilmalari”. Shu atama orqali til vositalarining zamni ifodalashdagi roli tushuntiriladi, ularning mohiyati asosan fe‘l shakllari bilan bog‘liqdir.

- Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, zamn har doim hodisa bilan bog‘liq bo‘ladi:

- "Arab tilida zamn lingvistik jihatdan matnga birlashgan bo‘lib, u inson hayoti va tabiat hodisalari bilan belgilanadi, aksincha emas. U nisbiy va sezgir bo‘lib, hodisa bilan chambarchas bog‘langan, xuddi joyning unga oid holat bilan bog‘lanishi kabi."

- Shu asosda, adabiyotdagi zaman faqat bizga ma‘lum soat, daqiqa yoki kunlar bilan o‘lchanadigan vaqt maydoni emas; u boshqa o‘lchamlarga ega bo‘lib, adib yoki shoirning kuzatuvlari va tajribalaridan kelib chiqadi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ قَالَ عَزَّ وَجَلَّ: "يُؤَذِّنِي ابْنُ آدَمَ يَسُبُّ الدَّهْرَ وَ أَنَا الدَّهْرُ، بِيَدِي
"الأمرُ أَقْلِبُ اللَّيْلَ وَ النَّهَارَ" (Al-Bukhari, 2016, p. 4826)

4826. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Alloh azza va jalla: “Odam bolasi Menga ozor beradi: zamoni so‘kadi. Holbuki, zamon Menman. Ish Mening qo‘limda. Kecha va kunduzni aylantirib turaman”, dedi”. (Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Vol. 6, 2021, p. 318)

Ushbu hadisi sharifda *الدَّهْرُ* kalimasi zamon ma‘nosida kelgan. *الدَّهْرُ* Bu yerda *so‘zi maf‘ul bihi* (to‘ldiruvchi) vazifasida kelgan. Bu yerda insonlar boshiga tushgan musibat yoki qiyinchiliklarni zamonga yuklab, “zamon yomon”, “davr yomon” kabi iboralar bilan shikoyat qilishlari nazarda tutiladi. *أَنَا الدَّهْرُ* Bu jumlada *so‘zi xabar* (kesim) vazifasida kelgan. Ammo u haqiqiy ma‘noda Alloh vaqtning o‘zi degani emas, balki vaqt ustidan hukmronlik qiluvchi Zot ekanini bildiradi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: "لَا تَسْمُوا الْعِنَبَ الْكَرْمَ وَ لَا تَقُولُ خَيْبَةَ الدَّهْرِ، فَإِنَّ اللَّهَ هُوَ الدَّهْرُ
(Al-Bukhari, 2016, p. 6182)

6182. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Uzumni (karm) demanglar va Zamon qursin!” demanglar, chunki Allohning O‘zi zamondir”, dedilar”. (Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Vol. 7, 2021, p. 514)

Ushbu hadisi sharifdagi *خَيْبَةَ الدَّهْرِ* Bu iborada *so‘zi mudof ilayh* (izofa ikkinchi qismi) vazifasida kelgan. Zamonning halok bo‘lishligi” yoki “zamon qursin” degan ma‘noni bildiradi. Arab tilida bu ibora odamlar boshiga kulfat tushganda zamoni ayblash ma‘nosida ishlatilgan.

فَإِنَّ اللَّهَ هُوَ الدَّهْرُ Bu iborada *so‘zi xabar* (kesim) vazifasida kelgan. “Albatta, Alloh — zamondir.” Ammo bu ibora haqiqiy ma‘noda Alloh vaqtning o‘zi degani emas, balki zamoni

boshqaruvchi Zot ekanini bildiradi. Hadisning asosiy ma’nosi shundan iboratki, insonlar boshiga tushgan voqealar uchun zamonni ayblamasliklari kerak. Chunki zamon voqealarni yaratmaydi, balki barcha hodisalar Allohning irodasi bilan sodir bo‘ladi.

(Al-Bukhari, 2016, p. 3197) عَنْ أَبِي بَكْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: الزَّمَانُ قَدْ اسْتَدَارَ كَهَيْئَتِهِ يَوْمَ خَلَقَ اللَّهُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ

3197. Abu Bakra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Zamon (Alloh) osmonlaru yerlarni yaratgan kundagidek holatiga qaytdi.”

“Zamon” so‘zi arab tilida vaqt degan ma’noni bildirib, har qanday qisqayu uzun vaqt uchun ishlatilaveriladi. Bu yerda zamon deganda oy va yil nazarda tutilgan. (Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Vol. 4, 2014, p. 337)

Mazkur hadis arab tilidagi zamon tushunchasining ishlatilishiga muhim misol hisoblanadi. Bu yerda الزَّمان

- voqealar sodir bo‘ladigan vaqt,
- oylar va taqvim tizimi bilan bog‘liq vaqt ma’nosida ishlatilgan.

Bu esa arab tilida zamon tushunchasining ba’zan taqvimiy yoki astronomik vaqt bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur hadisda الزَّمان so‘zi muftada vazifasida kelib, vaqtning asl tartibiga qaytganini bildiradi. Hadisning mazmuni jahiliya davrida oylar tartibini o‘zgartirish amaliyoti bekor qilinganini va vaqt hisobining Alloh yaratgan dastlabki tizimiga qaytganini ifodalaydi.

(Al-Bukhari, 2016, p. 3067) عَنْ ابْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا قَالَ: ذَهَبَ فَرَسٌ لَهُ، فَأَخَذَهُ الْعَدُوُّ، فَظَهَرَ عَلَيْهِ الْمُسْلِمُونَ، فَرَدَّ عَلَيْهِ فِي زَمَنِ رَسُولِ اللَّهِ ﷺ، وَابْقَى عَبْدٌ لَهُ فَلَجِقَ بِالرُّومِ، فَظَهَرَ عَلَيْهِمُ الْمُسْلِمُونَ

3067. Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi.

“Ibn Umar roziyallohu anhumoning oti ketib qolib, dushman uni tutib olibdi. Musulmonlar ularning ustidan g‘alaba qilishibdi. (Oti) Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning zamonlarida o‘ziga qaytarib berilibdi. U kishining bir quli qochib, Rumga yetib oldi. Musulmonlar uning (Rumning) ustidan ham g‘alaba qilishdi.” (Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Vol. 4, 2014, p. 237)

Mazkur hadis arab tilida zamon so‘zining tarixiy davrni bildiruvchi ma’nosini ko‘rsatadi. Bu yerda zamon:

- grammatik jihatdan zarf zamon vazifasini bajaradi;
- semantik jihatdan muayyan tarixiy davrni bildiradi.

Bu arab tilida vaqt tushunchasi ko‘pincha izofa konstruksiyasi orqali ifodalanishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, arab tilida vaqt tushunchasi zaman (زمان), zamn (زمن), dahr (دهر) va vaqt (وقت) kabi terminlar orqali ifodalanadi. Qadimgi lugʻatshunos olimlar bu atamalarni koʻpincha bir xil maʼnoda qoʻllagan boʻlsalar-da, ayrim manbalarda ular oʻrtasida maʼlum semantik farqlar ham koʻrsatilgan. Nahv olimlari esa vaqtni asosan feʼlning sodir boʻlish vaqti bilan bogʻlab, arab tilida feʼl zamonlari tizimini shakllantirganlar. Hadis manbalari ham ushbu terminlarning turli grammatik va semantik maʼnolarda qoʻllanilishini koʻrsatadi. Shu bois vaqt tushunchasini lugʻaviy, grammatik va matn konteksti asosida oʻrganish arab tilshunosligi hamda hadis ilmi tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Alamov, S. R., 2025, A Comparative Study of the Terms «Tourism» (Siyāḥa) and «Visitation» (Ziyāra) within the Field of Tourism (in the context of Arabic, Persian, and Uzbek languages), *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 354–365.
2. Al-Bukhari, M. b. I., 2016, *Sahih al-Bukhari*. Sahih al-Bukhari. – Beirut, Dar Kitab al-ʻArabi, 1728 p. (in Arabic).
3. Al-Farahidi, K. b. A., 1414 AH, *Al-ʻAyn al-ʻAyn*. – Cairo, Dar wa Maktabat al-Hilal, 1st ed., Vol. 13, p. 175 (in Arabic).
4. Axmedov, S., & Nazarov, V., 2025, Neologizmlar tadqiqi tarixiga doir, *Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 5(1s), 308–312.
5. Ibn Durayd, M. b. A., 1345 AH, *The Comprehensive Lexicon*. Jamharat al-Lugha. – Hyderabad, Matbaʻat Majlis Daʻirat al-Maʻarif al-ʻUthmaniyya, Vol. 3, p. 19 (in Arabic).
6. Ibn Faris, A. b. Z., 1399 AH, *Dictionary of Language Measures*. Muʻjam Maqayis al-Lugha. – Beirut, Dar al-Fikr, 1st ed. (in Arabic).
7. Ibn Manzur, M. b. M., 1990, *The Tongue of the Arabs*. Lisan al-ʻArab. – Beirut, Dar Sadir, 1st ed., Vol. 13, p. 199 (in Arabic).
8. Mohamed, A. M. A., 2024, The Role of Dictionaries in Teaching the Language and the Impact of Artificial Intelligence, *Journal of Language Pedagogy*, 2(2), 23–33.
9. Murtazoyev, V. X., 2025, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Misrdagi adabiy muhitning jamiyat hayotidagi oʻrni xususida, *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 486–496.
10. Qurbonov, B., 2025, Oʻzbek tilidagi forscha oʻzlashmalar xususida, *Oriental Renaissance*, 5(3), 450–455.
11. Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2014, *Golden Chain* (Sahih al-Bukhari), Vol. 4, Tashkent, Hilol-Nashr, 670 p.
12. Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021, *Golden Chain* (Sahih al-Bukhari), Vol. 6, Tashkent, Hilol-Nashr, 686 p.

13. Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021, Golden Chain (Sahih al-Bukhari), Vol. 7, Tashkent, Hilol-Nashr, 702 p.

14. Аламов, Ш., 2022, Форсча илдизли арабча сўзларнинг хусусиятлари, Oriental Renaissance, 2(6), 472–476.

15. Амонов, Б. М., 2020, History of the Emergence and Development of the Science of Hadith in Transoxiana, Актуальные научные исследования в современном мире, (5-11), 81–92.